

## KIMYO FANI O'QITISH METODLARI

**Narkulova Ma'mura Nizomiddinovna**  
*TDSI akademik litsey kimyo fani bosh o'qituvchi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitish hamda ushbu jarayonda foydalaniladigan metodlar haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Kimyo, fan, vazifa, modda, metod, pedagog, o'qituvchi, kimyoviy modda, xossa.*

Kimyo — moddalarning tuzilishi va o'zgarishini o'rGANADIGAN fan. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini xosil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro'yobga chiqdi

Kimyoning asosiy vazifasi avvalo insoniyat uchun eng kerakli materiallarni tabiiy moddalardan olish uchun zarur - metallar, keramika, bog'lovchi moddalar, farfor, shisha, o'g'itlar, farmasevtik materiallar, kauchuk, plastmassa, sun'iy tola, yoqilg'i oziq-ovqat mahsulotlari, kompozitsion materiallar va ko'pgina boshqa materiallar olishga qaratilgandir. Buning uchun kimyo o'zining asosiy muammosini hal qilishi kerak: ya'ni ayni modda qanday kimyoviy elementlardan tashkil topgan va kerakli materiallarni olish uchun qanday o'zgartishlar qilish kerak. Bundan kimyoning asosiy vazifasi - xoSSasi oldindan ma'lum moddani olish va modda xoSSasini boshqarish yo'llarini bilish yoki aniqlashdan iborat ekanligi kelib chiqadi.

Kimyo metodikasi, boshqa o'quv predmetlari o'qitish metodikasi kabi, asl mohiyati bilan olganda, uchta asosiy masalani:

- ta'lif-tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalarini;
- bu ishning mazmuni;
- o'quvchilarni ma'lumotli qilish va tarbiyalash jarayoni xarakterini hal qilib beradi.

Kimyo o'qitish o'quvchilarda asta-sekin kimyoviy dunyoqarash hosil qilishi kerak. Kimyo o'qituvchisining vazifasi:

- kelajagi buyuk mustaqil O'zbekistonimiz uchun o'quvchilarni hozirgi zamon kimyo fani asoslарини ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga erishishi;
- o'quvchilarni kimyoning atrofdagi tabiatni izohlab berish va undan foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarda tabiatga to'g'ri, materialistik nuqtai nazardan qarash xususiyatlarini hosil qilishga alohida e'tibor berish;
- o'quvchilarni ilmiy bilishning vositalaridan biri bo'lgan kimyoviy tajribalardan foydalana oladigan qilib tarbiyalash;
- o'quvchilarni mehnatga o'rgatish-ularni kelgusi amaliy faoliyatga tayyorlash zarurdir;
- o'quvchilarni kimyo faniga nisbatan qiziqishlarini yanada orttirish;

- o'quvchilarni mustaqil ravishda izlanuvchanlikka va bilim olishga o'rgatish;
- o'quvchilarda kundalik turmushda, hayotda bo'ladiqan o'quv va malakalarini hosil qilish;
- o'quvchilarning qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishga jalg qilish;
- kimyo fanining hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirish;
- jismoniy baquvvat, aqlan yetuk insonlar darajasiga etqazish; - elementlar davriy qonuni va davriy sistemasi bilan chuqur tanishish kimyo kursining asosiy mazmunini tashkil etadi;

Kimyo fani murakkab, shu bilan birga juda qiziq fan. Mavzularni tushuntirishda o'tiladigan mavzuning mazmuniga, o'quvchilarning yoshi, psixologiyasidan kelib chiqib, ularga mos ta'lim metodlari tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan: 7- sinf o'quvhilari qiziquvchan, o'yinqaroq bo'ladi. Ularga mavzularni umumiy takrorlashda yoki o'quvchilarni fikrini fanga qaratishda "Kamyogar koptokcha" metodidan foydalanish mumkin.

Ta'rif: Bunda o'qituvchi koptokni ixtiyoriy bir o'quvchiga uloqtiradi. o'quvchi esa 1 ta kimyoviy tushuncha aytib o'qituvchiga qaytaradi. Masalan: atom. O'qituvchi iloji boricha fikrini jamlay olmagan o'quvchilarni fanga qaratishga harakat qilishi kerak. Bunda o'quvchilar quyidagicha tushunchalarni sanashlari mumkin. Masalan: element, modda, jism, elektron, proton, allotropiya, sublimatlanish, vodorod, yod va hokazo. Bunda bir o'quvchi tomonidan aytilgan tushunchalar takrorlanmasligi kerak. Takroriy aytgan o'quvchi mag'lub hisoblanadi.

Natijaviyligi: bu metod orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'quvchilarni fikrini kimyoga qaratishga yordam beradi.

"Sehrli siyohlar" qiziqarli tajribaviy metodi.

Ta'rif: Bunda o'qituvchi mavzu nomini yoki biron-bir tushunchani oq qog'ozga fenolftalein eritmasidan foydalanib yoziladi. Yozuv bir oz ochiq havoda quritiladi. Qog'ozda hech qanday yozuv ko'rinxmaydi. Chunki fenolftalein eritmasi rangsiz. Qog'ozni yozuv taxtasiga ilib qo'yish mumkin. Qog'ozga "Mavzu: Asoslarning olinishi va ishlatalishi" deb yozish mumkin. Suv purkagich idishga natriy gidroksid eritmasi avvaldan quyib qo'yiladi. U ham rangsiz. Eritmani qog'ozga purkaladi. Oppoq qog'ozda to'q pushti rangli yozuv "Mavzu: Asoslarning olinishi va xossalari" paydo bo'ladi. Qo'llanilishi: Bu metoddan barcha sinflarga kimyo darsini o'tishda, 7-, 8- sinflarda asoslarga oid mavzularni o'tishda, indikatorlar haqida ma'lumot berilganda foydalanish mumkin.

Natijaviyligi: Bu metoddan foydalanib o'quvchilarni hayratini, fanga bo'lgan qiziqishini, intilishini oshirish, kimyoni mo'jizakor ekanini ko'rsatish, o'quvchilar fikrini darsga qarata olish, mavzuga doir amaliy bilim bera olish mumkin. Bu esa mavzuni to'la tushunishlariga yordam beradi.

Kimyo o'qitish metodikasida o'qitish uslubini didaktik tarbiyalashni tarbiya qonuniyatları, bilimini rivojlantirishni-psixologiya fanları o'rgatadi. O'qitish davrida bu uchala tarkibiy qismlar o'zaro ta'sirlanadi va kimyo o'qitish metodikasi asosida turadi. Demak, kimyo o'qitish metodikasi matabda o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash va bilimini

rivojlantirishni kimyo darslarini o'qitish, to'garak mashg'ulotlarini kamyoviy tajribalar bilan olib borish davomida o'rgatadigan pedagogik fan ekan. Kimyo o'qitish metodikasi pedagogika, kimyo, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarning qoq markazida joylashgan bo'lib ular bilan uzviy bog'liqdir. Kimyo o'qitish metodikasi falsafa, siyosiy iqtisod kamyoviy va boshqa tushunchalar bilan kelajak o'qituvchinini qurollab, o'rta maktab sharoitiga moslashishiga tayyorlaydi.

Kimyo metodikasini ilmiy asosida hal qilish uchun mакtab kamyoviy kursining konkret materiallariga dialektik-materialistik falsafa nuqtai nazaridan qarab asoslanish, pedagogikaning, fiziologiya va psixologiyaning hozirgi zamon ma'lumotlarini har tomonlama hisobga olishi albatta zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "1- oktabr\_O'qituvchi va murabbiylar kuni "bayramidagi nutqi.
2. I. R. Asqarov, N. X. To'xtaboyev, K. G'. G'opirov - Kimyo 7-sinf darsligi. : Toshkent-2013.
3. I. N. Borisov. Ximiya o'qitish metodikasi. Toshkent, 1958.
4. Z.Asimova. "Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: 1995.
5. 8 – sınıf kimyo darsligi I. R. Asqarov, N. X. To'xtaboyev, K. G'opirov 2 – nashri.[2]